

QO`BIZ CHOLG`USINING ORKESTRDAGI SEHIRLI OHANGI

Ibrohimova Malika Alisher qizi

O`zDSMIFMF “Professional ta’lim cholg‘u ijrochiligi” 2- bosqich talabasi

mibrohimova289@gmail.com

Ilmiy rahbar

Rafiqov Maqsud Murod o‘g‘li

O`zDSMIFMF “Cholg‘u ijrochiligi va musiqiy nazariy fanlar” kafedra o‘qituvchisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada qo‘biz sozining cholg‘ular orasida hamda orkestir va ansambilda tutgan o‘rnii naqadar muhum ekanligiga ta‘rif berilgan. Bundan tashqari ushbu musiqa asbobi haqida va uning oiladosh cholg‘ulari tog‘risida ma‘lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘z: Qo‘biz, qo‘biz bas, qo‘biz kontirabas, san’at, tarix, uzon, doston, orkestir, maqom, ansambil.

Yurtimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy siyosiy o‘zgarishlarni tarannum etuvchi, betakror O‘zbekistonimizning madhini kuylovchi jozibador raqslar, bir-biridan ajoyib sahna asarlarini yaratish har bir san’at xodimi, shu sohaning mutaxassislari uchun asosiy vazifa etib tayinlanmoqda. Hattoki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” hamda mazkur qarorining ijrosini ta‘minlashda ma’sul vazirlik va idoralarning faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralar ko‘rilmoxda. Prezidentimiz “Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Shuningdek, har bir cholg‘uning tarixi bo‘lganidek qo‘biz asbobining ham o‘ziga yarasha tarixiga ega. Qo‘biz cholg‘usi uzoq tarixga ega cholg‘u asbobi hisoblanadi. U eski turk cholg‘ulardan biri Qo‘biz “Devon-ul-lug‘ot” kabi eski turk lug‘atida “qo‘biz”, “qo‘bizlamoq”kabi so‘zlar bilan ta‘rif berilgan. Navoiy, Lutfiy, Mirhaydar, Majzub kabi shoirlar asarlarida xam “qobiz” so‘ziga uchrash mumkin. Xofiz Darvesh Aliyning musiqiy risolasida qobizning Elxoniylardan sulton Uvays Jaloyirzamonida “uzon” ismli cholg‘udan foydalanib yasalganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar ham bizgacha yetib kelgan. “Uzon” o‘g‘uz turkchasida bahshi degan ma‘noni anglatadi. Avvalgi turklarda, yuqoridagi ma‘no bilan baxshilarning cholg‘ulari qo‘biz bo‘lgan. Hozirgi turklarning motam, to‘y marosimlarida baxshilar qo‘bizlarini cholib, unga yarasha qahramon hikoyalar, faxriyalar, dostonlar, ashulalar, marsiyalar aytadilar.

G‘ijjak-qobuz bas uchun kuylar bas va tenor (1 oktava «do») kalitida yoziladi.
sozi diapozoni foydalilaniladigan tovush
kengligi



Qo`bizsimon cholg`ular xitoyliklarda “xu-kin”, mo`g`ullarda “xur” kabilar uchraydi. Qo`bizning yaralishi ba`zi manbalarda, afsonaviy Qo`rqt nomi bilan keladi. Kim tomonidan kashf etilishidan qat`i nazar G`arb tadqiqotchilari skripka va unga o`xshash kamonli cholg`ularning ibtidosini Sharqdan izlash kerakligini va bu cholg`u qo`biz bo`lishi haqiqatga yaqinligi ham aytib o`tilgan. Qo`biz hozirda qozoq va qirg`izlarda juda keng qo`llaniladi. Qoraqalpoq jirovlari ham faqat shu cholg`u jo`rligida o`z dostonlarini va termalarini ijro etishmoqda.

Qo`bizning ikkita tori ham kamonga tortiladigan tori ham otning yolidan tayyorlanadi. Uning kosaxonasining faqat bir qismiga teri qoplanadi va shu joyga xaragi joylanadi. Kosaxonaning qolgan qismi esa ochiqligicha qoladi. Ijroda uning har ikki tori ham birlgilikda ishtirok etadi. Cholg`u ijrosida obertonlar ishtirokida faol bo`ladi va uning ijrosida birdaniga bir necha tovush hosil bo`layotgandek taassurot uyg`otadi. Qo`biz qirg`izlarda “qilqiyaq” deb nomlanadi. Qo`rmong`ozi nomidagi xalq cholg`u orkestri tarkibini kengaytirib, mukammallashtirib qo`bizning prima, alt, bas va kontirabas turlari o`ylab topilgan. Qayta ishlangan qo`biz turlari uch yoki to`rt torli bo`ladi. Qo`biz yakka tartibda, ansambilda va orkestirlarda ham ijro etiladi. Qozoq milliy cholg`ulari orkestirining yetakchi kamonli cholg`usi qo`biz ijrochiligi qozoqlarda juda yuqori o`ringa ega. O`zbek milliy cholg`ularidaham qo`bizning takomillashgan, biroq violonchelga yaqin ko`rinishga keltirilgan “qo`biz bas” va kontirabas o`rnida esa “qo`biz kontirabas” lar foydalanib kelinmoqda.

Qo`biz torli musiqa cholg`usi guruxiga kiradi. Bu cholg`u asbobi xalqlarda turlicha nomlanadi. Masalan, qirg`izlarda qo`miz, xakaslarda xomis nomi bilan nomlangan. O`zbek, Qozoq hamda Qoraqalpoqlarda Qo`biz-torli-kamonli cholg`u sifatida mashxur. Asbobning umumiy uzunligi 700 mm. O`yma kosasi va yoysimon bukilgan dastasi butun yog`ochdan yasaladi. Kosasining pastki qismi teri bilan qoplanadi. Otning yolidan yasalgan 2 ta tori kvartaga ba`zan kvintaga sozlanadi. Yoysimon kamoning uzinligi esa 700 mm. Qo`buz asbobi ilk bor O`zbekistonda 1930-yillargacha Buxoro maqom ansambilida tarkib topgan. 1940-1950-yillarda qo`biz rekanstruksiya qilingan va uning turlari xalq cholg`ulari orkestri tarkibida bo`lgan. Qo`bizning orkestrdagagi o`rni sezilarli darajada musiqaga hamohang ekanligini musiqa ihlosmandlari juda yaxshi bilishadi. Uning sadosi insoning qalbida o`zgacha his uyg`otadi.

Yuqorida aytib o`tganimzdek, cholg`ularni takomillashtirish jarayonida ko`plab asboblar orasida qo`biz bas ham yaratiladi. Qo`biz bas kamonli sozlar guruhiga kiradi. Bu cholg`u O`zbekistonning ayrim hududlarida keng qo`llaniladi. Kamonli sozlar oilasini tashkil qilish maqsadida konstruktorlarimiz A.I.Petrosyans, S.E.Didenko qo`biz asbobining bardavomligini saqlab qolgan holda qo`biz bas sozini yaratadilar. Qo`biz bas uchun kuylar va asarlar bas va tenir kalitlarida yoziladi. U transpazitsiya qilinmaydigan sozlar guruhiga kiradi. Simfonik orkestrdagagi violonchel kabi sozlanadi va huddi u kabi ijro etiladi.



Yana shunday takomillashgan cholg'udan biri qo'biz kontirabas kamonli sozlar guruhiga mansub. U eng pastki ovoz sozlaridan biri. Kontirabas uchun ham kuylar bas kalitida yoziladi va yozilganidan bir oktava past eshtiladi. Qo'biz kontirabas katta bo'lganligi uchun yerga qo'yib cholinadi. Cholg'uchi esa tik turgan xolda ijro etadi. Qo'biz bas hamda qo'biz kontirabas sozlari orkestir va ansamlillarda kuchli bas ohangini berib turadi va orkestr fundamentini yaratadi. O'zaro oktava oralig'ida birlashib kuchli sado beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki ko'plab cholg'ular orasida qo'bizning ham o'rni yertarli darajada mayjud. Men shuni istardimki, kelajak avlodga bu asbob to'la to'kisligicha yetib borishini, orkestir va ansambilarda uning beqiyos o'rni bor ekanligini anglashlarini istardim. Hozirgi kunda bu cholg'u asboblari O'zbekiston hududida jida kamdan kam joylarda ijro etilmoqda. Shu sababdan ham u uchun ko'proq asarlar yozilishi va ko'plab musiqa bilim yurtlarida ijro etilishini xoxlardim. Bu borada ushu asbobni har bir pedagog o'z talablariga qo'shimcha dars o'tishlarini istardim.